


“O‘zbekiston hududida tabiiy fanlar yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot va ekspeditsiyalar” nomli monografiya nashr etildi

O‘zR FA Tarix instituti tomonidan “O‘zbekiston hududida tabiiy fanlar yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot va ekspeditsiyalar (XIX - XX asr boshlari)” nomli monografiya nashr etildi.



Monografiyada O‘zbekiston hududida tabiiy fanlar yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlar ilk bora mintaq va jahon ilm-fani kesimida, geologik izlanishlar, geografik, gidrografik tadqiqotlar (Sirdaryo, Amudaryo, Orol ekspeditsiyalari), astronomik kuzatuvlar, kimyoviy laboratoriyalar tashkil etilishi va tahlillar, flora va fauna (parazitologiya, ornitologiya, zoologiya, entomologiya), kartografiya va topografiya yo‘nalishlaridagi tadqiqotlar, birlamchi manbalar, ilmiy asarlar atroflicha hamda kompleks tarzda tadqiq etilib, yoritib berilgan. O‘zbekistonning XIX - XX asrlardagi tarixi bo‘yicha tadqiqot olib boruvchi izlanuvchilarga, oliy ta‘lim muassasasalari uchun mo‘ljallangan. Ushbu kitobda ilk bor O‘zbekistonda XIX - XX asrlarda tabiiy fan yo‘nalishida yaratilgan tadqiqotlar tizimli ravishda o‘rganilgan.